

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10936121>

TILLARNI O‘QITISH METODIKASI VA DARSDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Qarshiyeva Mashxura Ziyadin qizi

O‘zbekiston jahon tillari universiteti roman-german filologiyasi fakulteti
2-bosqich talabasi

Abdunazarov Feruz Kuchkorovich

O‘zbekiston jahon tillari universiteti roman-german
filologiyasi fakulteti nemis tili amaliy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi,
mustaqil izlanuvchisi (PhD)

***Annotatsiya:** Bu maqola chet tili o‘qituvchisini kasbiy faoliyatiga nazariy hamda amaliy jihatdan tayyorlash haqida bo‘ladi. O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini ishlab chiqishga, asosiy kasbiy malakasining shakllanishiga; darsning ongli, tarbiyaviy va ta’limiy maqsadlarini shakllantirish mavzu asosida o‘quv materialini tuzish va rejalashtirish, darsni rejalashtirish haqida bo‘ladi.*

***Kalit so‘zlar:** metodika, ko‘nikma, malaka, didaktika, multimedia, animatsiya, grafika, diafilm, videofilm.*

***Аннотация:** Данная статья посвящена теоретической и практической подготовке преподавателя иностранного языка к его профессиональной деятельности. Развитие практических навыков учащихся, формирование основных профессиональных умений; формирование осознанных учебно-воспитательных целей урока заключается в создании и планировании учебного материала по теме, планировании урока.*

***Ключевые слова:** методика, умения, навыки, дидактика, мультимедиа, анимация, графика, слайд-фильм, видеофильм.*

Annotation: *This article is about the theoretical and practical preparation of a foreign language teacher for his professional activity. Development of practical skills of students, formation of basic professional skills; formation of conscious, educational and educational goals of the lesson is about the creation and planning of educational material based on the topic, lesson planning.*

Keywords: *methodology, skills, skills, didactics, multimedia, animation, graphics, slide film, video film.*

KIRISH

Metodika -yunoncha “methodike “so‘zidan olingan bo‘lib “biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmui “ma’nosini anglatadi. Pedagogik muloqotda metodika atamasining 3ta asosiy ma’nosi bor

1. O‘quv predmeti.
2. Metodik usullar yig‘indisi.
3. Ta’lim nazariyasi va maxsus fan.

Chet tili o‘qitish deyilganda chet tili o‘rgatishning amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishivuni taminlovchi o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining majmui hisoblanadi. Masalan chet tili o‘qitishning tarjima metod, intensiv metod, to‘g‘ri metod, ongli-qiyosiy metod, an’anaviy metod va boshqalar hisoblanadi.

Chet tili o‘qitish metodikasida hozirda madaniyatlararo muloqot iborasi keng qo‘llanilib kelinmoqda. Aynan bu tushunchani biz turli xildagi kontekstlarda qo‘llashimiz mumkin.

Madaniyatlararo muloqot – turli madaniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, urf-odatlar, an’analari, qadriyatlar sistemasi va boshqalar to‘g‘risidagi muloqoti ma’lumotidir.

Mazkur jarayonda o‘quvchi talabalarni o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatiga nisbatan hurmat, sabr-toqat qilish va o‘zga mamlakat madaniyatini to‘g‘ri tushunish ruhida tarbiyalab, rivojlantirib borish lozim. Madaniyatlararo muloqot formulasi

sabrlilik, bag'rikenglik hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy madaniy xatolarga qo'yimaslik talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin.

Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til.

Metodikaning predmeti: Masalan: nemis xalqida "Tee oder Kaffee?" ya'ni "choy yoki kofemi?" degan savolga ona tilimizda "choy" deb javob beramiz, lekin nemis tilida "Bitte, Tee" ya'ni "Iltimos choy" deb javob beriladi. So'z kishilarning muloqot orqali bir biriga bo'lmaydi. Yangi materialni bir vaqtning o'zida barcha nutq faoliyati turlarida qo'llash natijasida malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Til ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ya'ni kishilar o'rtasidagi muloqot vositasi hisoblanadi va shu bilan birgalikda ma'lumotlar almashish, tarqatish, yangi ma'lumotlar olish, yangi til o'rganish yangi madaniyat o'rganish demakdir.

Chet til o'qitish metodi: O'qituvchilarning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun nafaqat predmetli, pedagogik va psixologik bilimlar, balki yana boshqa alohida xususiyat-muloqot qila olish ko'nikma va malakalari ham, albatta, zarur hisoblanadi. Metodlar tarixi atoqli metodist prof.I.V.Rahmonov tomonidan chuqur o'rganilgan. Pedagogning o'quvchilar bilan olib boradigan muloqot va muomalasiga qarab bolalarning o'quv predmetiga qiziqish va o'quv motivlari shakllanadi. Muloqot shaxs ijtimoiylashuvining muhim sharti hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Tabiat va jamiyat hodisalari o'zaro bog'langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Fanlar obyektiv voqelikning inikosi ekanligi uchun ularning hech biri boshqalaridan ajralgan holda mavjud emas. Hodisa va predmet ayni zamonda bir talay fanlarning tadqiqot manbai bo'la oladi, misol uchun,

“til” ijtimoiy hodisasini o‘z nuqtai nazaridan tilshunoslik (lingvistika), ruxshunoslik (psixologiya), ta’limshunoslik (didaktika) o‘rganadi.

Darsni qanday tashkil qilish kerak?

Pedagog dars mobaynida nafaqat o‘zi ishlashi balki o‘quvchilarni ham dars jarayoniga qiziqitira olishi, o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rgatish lozim. Faqatgina bu natijaga, darsni to‘g‘ri tashkil etish ilg‘or zamonaviy texnologiyalardan keng amalda foydalanish kerak. Pedagogning innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, amalga oshirish va tahlil qilish samaradorlikga baho berishni ham qamrab oladi.

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Darsda tajribalarimiz asosida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ta’lim tarbiya berish yo‘llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini to‘g‘ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalardan texnik vositalarning, zamonaviy kompyuterlarning o‘rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimedia, animatsiya, grafika, diafilm, va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo‘lishiga ko‘mak beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi.*
- *maqsadga erishish yo‘llari.*
- *o‘quv materiallarini taqdim etish usullari.*
- *o‘qitish metodlari.*
- *o‘quv topshiriqlarining turlari.*
- *muhokamalar uchun savollar.*
- *munozara va bahslarni tashkil etish yo‘llari*
- *o‘zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olish lozim bo‘ladi.*

XULOSA

Kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari orqali pedagog xodimlari hamda o'quvchilar juda ko'p ma'lumotlarni izlash, qayta ishlash va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Chunki, biz XXI asr zamonaviy texnologiyalar va kommunikatsiya axborot texnologiyalari zamonida yashayapmiz. Aymiqsa chet tilini o'rganayotgan o'quvchilar uchun juda muhim ahamiyatga egadir. Chunki yangi bilimlarni, ma'lumotlarni, bilmagan bilimlarni internetdan qidirib o'zlari uchun bilib olishadi. Bundan tashqari turli xil dasturlar orqali o'zlari mustaqil til o'rganishlari mumkin. Hozirda umumta'lim darslarida foydalanish mumkin bo'lgan internetda joylashtirilgan ko'plab dasturlar mavjud. Bularga, albatta, elektron darsliklarni kiritish mumkin. Kompyuter texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jumaboyev B.B.(2020) Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education .
2. Jumaboyev B .B.(2020) Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi.
3. Samarova S. (2018) Forming Creative Vision of Person as Universal Method Enhacing Creativity
4. Рахмонова М.К.(2019) Талабаларда ижтимоий фаолликни ривожлантиришнинг Назарий методологик асослари.
5. Рахмонова М.К (2019) Изучение стратегии обучения.